

**O‘SMIRLAR MUHITIDA ZO‘RAVONLIK HISSI VUJUDGA
KELISH SHAROITLARINI O‘RGANISH**

Rayimov Nursulton Murodilovich

“Oila va gender” ilmiy-tadqiqot instituti

tayanch doktoranti(PhD)

Annotatsiya: Mazkur tezisda o‘smirlar orasida zo‘ravonlik hissining vujudga kelishiga ta’sir etuvchi asosiy ijtimoiy-psixologik omillar hamda ularning o‘smir shaxsi va xulq-atvori shakllanishidagi o‘rni tahlil qilinadi. Shuningdek, o‘smirlik davrining psixologik xususiyatlari, oilaviy muhit, tengdoshlar ta’siri va motivatsion omillarning zo‘ravonlik hissi rivojlanishidagi ahamiyati yoritiladi.

Kalit so‘zlar: o‘smirlik davri, o‘smir xulq-atvori, zo‘ravonlik hissi, maydon nazariyasi,

O‘smirlik davri inson kamolotining muhim bosqichlaridan biri hisoblanadi. Shuning bu davr ota-onalardan mehnat talab qiladigan davr deb aytishimiz mumkin. O‘smirlik yoshida bolalikdan kattalik holatiga ko‘chish jarayoni sodir bo‘ladi. O‘smirda psixik jarayonlar keskin o‘zgarishi bilan aqliy faoliyatida ham "bo‘g‘ilishlar seziladi. Shuning uchun shaxslararo munosabatda, o‘smir bilan o‘qituvchining muloqotida, kattalar bilan o‘smirlarning muomalasida qat’iy o‘zgarishlar vujudga keladi. O‘smirda shaxsiy nuqtai-nazarning vujudga kelishi sababli u kattalarning, o‘qituvchining qayg‘urishi, koyishiga qaramay, o‘zining fikrini o‘tkazishga harakat qiladi. Uning o‘z qadr-qimmati haqidagi tasavvuri, narsa va hodisalarga munosabati oqilonalikdan uzoqlasha boshlaydi, u ayrim ma’lumotlarni tushuntirib berishni yoqtirmaydigan bo‘lib qoladi. Serzardalik kundalik xatti-harakatning ajralmas qismiga aylanadi. O‘smir xulqidagi

bunday o'zgarishlar tajribasiz o'qituvchi yoki ota-onani qattiq tashvishga soladi, asabiylashtiradi va ularning o'smirga munosabatini o'zgartiradi. Natijada kelishmovchiliklar, anglashilmovchiliklar, kelib chiqadi. Bu davrning shaxs psixologiyasida alohida ahamiyat berilishi kerak bo'lgan davr hisoblanishini bir qator psixologiya olimlari tomonidan mahsus o'rganilib, nazariyalar yaratilganidan ham bilishimiz mumkin. Shunday nazariyalardan biri K.Levinga tegishli bo'lib, uning maydonlar nazariyasida o'smir kattalar hayot normalarini qabul qilmaganda yoki uni tushunmaganda o'smirda atrofga nisbatan agressiya, zo'ravonlik hususiyatlari namoyon bo'lishi mumkinligini ta'kidlab o'tgan.

O'smirlik davriga oid konsepsiyalarni o'rganish asosida o'smirlarda zo'ravonlik hissi vujudga kelishining quyidagi omillarini ajratish maqsadga muvofiq:

- ijtimoiy (o'smirlik davridagi zo'ravonlik hissi yuzaga kelishining makro va mikroijtimoiy sharoitlari):
 - shaxslilik (o'smirlarning - shaxslilik xususiyatlarini ular o'rtasidagi shaxslararo nizolarning yuzaga kelish omillari sifatida o'rganish);
 - o'smirlarning birgalikdagi faoliyati (shaxslararo zo'ravonlik holatlari yuzaga kelishi uchun sharoit yaratuvchi birgalikdagi faoliyat xususiyatlarini aniqlash);
 - motivatsion (o'smirlar motivatsion sohasi xususiyatlarini ular o'rtasidagi nizolarni yuzaga keltiruvchi shart sifatida o'rganish);
 - xulq-atvor (o'smirlardagi zo'ravon xulq-atvor turlarining shakllanishiga turli omillarning ta'sirini o'rganish).

O'smirlar o'rtasidagi xulq-atvorning zo'ravonlik shakllari turli ijtimoiy omillar tomonidan keltirib chiqariladi. Ular orasida maktabdan tashqari referent guruhlar va birlashmalarni ko'rsatishimiz mumkin, ularda urishqoqlik, agressivlik ko'pincha dadillik, mustaqillik isboti sifatida qaraladi. Zo'ravonlik hissi shakllanishiga sezilarli darajada oiladagi

deformatsiya ham ta'sir ko'rsatadi. Zamonaviy psixologik tadqiqotlar ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, oilaviy tarbiya xususiyatlari o'smirlardagi zo'ravonlik darajasi va xarakteriga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

Ayrim tadqiqotlar natijalariga ko'ra, zo'ravon xulq-atvorga moyil o'smirlarning 68,35 foizi oilaviy kommunikatsiya tizimi izdan chiqqan, oila a'zolari o'rtasida emotsional qo'llab-quvvatlash yetarli bo'lmagan hamda psixologik xavfsizlik muhiti shakllanmagan oilalarda voyaga yetayotganligi aniqlangan. Mazkur holat oilaviy munosabatlarni sog'lomlashtirish va otionalarning psixologik kompetensiyasini oshirish zo'ravonlikning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mukinki, o'smirlarda zo'ravonlik hissining vujudga kelishi biologik emas, balki ko'proq ijtimoiy-psixologik omillar ta'sirida shakllanadigan murakkab jarayondir. Ayniqsa, oilaviy munosabatlar, tengdoshlar muhiti va shaxsiy psixologik xususiyatlar zo'ravonlikka moyillikning rivojlanishida yetakchi omillar hisoblanadi. Shu bois zo'ravonlikning oldini olishda oila, ta'lim muassasalari va psixologik xizmatning hamkorligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Buss A.H. & Perry M. The Aggression Questionnaire // Journal of Personality and Social Psychology. — 1992. — Vol. 63(3). — P. 452–459.
2. Craig W.M. The relationship among bullying, victimization, depression, anxiety, and aggression in elementary school children // Personality and Individual Differences-1998. - Vol. 24(1). — P. 123–130.
3. Olweus D. Bullying at School: What We Know and What We Can Do. — Oxford: Blackwell Publishers, 1994. — 140 p.

4. Бандура А. Агрессия: социально-когнитивный анализ / пер. с англ. — М.: Прогресс, 1979. — 370 с.
5. Берквиз Л. Агрессия: причины, последствия и контроль. — СПб.: Питер, 2001. — 416 с.
6. Доллард Дж., Дуб Л., Миллер Н., Моурер О., Сирс Р. Фрустрация и агрессия. — М.: Изд-во иностр. лит., 1950. — 210 с.
7. Rayimov N.M. Zo‘ravonlik hissi bo‘lgan o‘smir shaxsi profiliga ta’sir etuvchi ijtimoiy-psixologik omillar ZAMONAVIY TAJLIM / СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ 2025, 11 (156)
УЎК: 159.9.016.2 https://doi.org/10.34920/so/vol_2025_issue_11_1
8. Лобаскова М.М. и др. Психометрический анализ опросника агрессивности Басса Перри /